

KICHIK BIZNESNI MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHDA BANK KREDITINING XORIJIY TAJRIBASI

Bazarova Mamlakat Supiyevna

Osiyo xalqaro universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Xalqaro kredit – bu ssuda kapitalining xalqaro miqyosidagi harakatli bo‘lib, bu harakat tovar va valyuta ko‘rinishidagi mablag‘larni qaytarib berishlik, muddatlilik va haq to‘lashlik asosida berish bilan bog‘liqdir.*

Kalit so‘z: *Xalqaro kredit munosabatlarida qatnashuvchi subyektlar bo‘lib, tijorat banklari, markaziy banklar, davlat organlari, hukumat, yirik korporasiyalar hamda xalqaro va regional moliya-kredit tashkilotlari hisoblanadi.*

Xalqaro kreditning asosiy shakllari sifatida firmaviy kredit, akseptli kreditlar, akseptli-rambursli kreditlarni ko‘rsatish mumkin. Firmaviy kredit – bu bir mamlakat firmasi tomonidan ikkinchi mamlakatdagi firmaga berilgan kreditlar. Uning eng keng tarqalgan turi – bu eksportyorning importyorga tovarlarni to‘lov muddatini kechiktirish asosida sotishga asoslangan kreditlar. Akseptli kredit – bu yirik banklar tomonidan tratlarni akseptlash shaklida beriladigan kreditlar. Agar eksport qiluvchi import qiluvchining to‘lovga qobilligiga shubha qilsa yoki to‘lov yig‘indisini tezda olishni xohlasa, ushbu kreditdan foydalaniladi. Akseptli-rambursli kreditning ma‘nosi shundaki, eksport qiluvchining vekseli uchinchi mamlakat banki tomonidan akseptlanadi va importyor vekselda ko‘rsatilgan yig‘indini akseptlangan bankka o‘tkazadi. Ma‘lumki, xususiy banklar ham xalqaro tashkilotlar (Xalqaro valyuta fondi, Jahon tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo rivojlanish banki va boshqalar) kabi xalqaro kreditlar beradilar. Ammo ularning kreditlarni berish shartlari bir-biridan jiddiy farq qiladi.

Bu farqlar quyidagilardan iborat:

- xalqaro tashkilotlar, odatda uzoq muddatli kreditlar beradi. Xususiy banklar esa, asosan qisqa muddatli kreditlar berish bilan shug‘ullanadi;
- xalqaro tashkilotlar beradigan kreditlarning foiz stavkasi kichik. Odatda, yiliga 9-10% ni tashkil qiladi. Xususiy banklarniki esa nisbatan yuqori, ko‘pchilik hollarda 18-20% dan iborat bo‘ladi;
- xalqaro tashkilotlar iqtisodiyotini dasturlari asosida kredit beradi. Bunda aniq dasturlar ularning ekspertlari tomonidan ko‘rib chiqilishi kerak. Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar kredit oluvchi mamlakatlardan ma‘lum ko‘rsatkichlarga – byudjet defisitini yalpi milliy mahsulotga nisbatan ma‘lum nisbatini, inflyasiyaning oylik darajasi va

hokazolarga rioya etilishini talab qiladi; xususiy banklar esa, bu taxlitdagi dasturlarga, ko'rsatkichlarga rioya qilishni talab etmaydi;

- xususiy banklar beradigan xalqaro kreditlar hajmida ta'minlangan

kreditlarning salmog'i katta bo'ladi. Xalqaro tashkilotlarning kreditida esa aksincha, ularning salmog'i, odatda, kichik bo'ladi. Kredit jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini pullarga ehtiyojmand bo'lgan subyektlar o'rtasida taqsimlaydi. Bu taqsimlash jarayoni qayta taqsimlash deyiladi, chunki bu mablag'lar moliya kategoriyasi yordamida birlamchi taqsimlash jarayonida o'tgan mablag'lardir. Bizga ma'lumki, moliya kategoriyasi yordamida milliy daromad dastlabki taqsimlanganda to'rt yirik qismga bo'linib ketadi:

- moddiy ishlab chiqarish sohasida band bo'lgan xodimlarning ish haqi;
- moddiy ishlab chiqarish sohasidagi korxonalarining foydasi;
- banklar bergan kredit uchun foiz stavkasi;

Bankning 2023 yil uchun mo'ljallangan Biznes rejasida belgilangan ko'rsatkichlar va vazifalar ijrosi bo'yicha joriy yilda qo'yidagi natijalarga erishildi. Umumiy kapital 900,2 mlrd.so'mga yoki 11,5%ga oshib, 8,7 trln.so'mni tashkil qildi. Jami aktivlar 10,4 trln.so'mga yoki 16,1%ga oshib, 74,6 trln.so'mni tashkil qildi. Kredit qo'yilmalari 9,0 trln.so'mga yoki 18,8%ga ortib, 57,1 trln.so'mni tashkil qildi. Jami aktivlardagi ulushi 74,8% dan 76,5%ga ko'tarildi. Bankda doimiy ravishda on-layn tartibda ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi tobora ortib bormoqda. Hisobot davrida chakana kreditlarning 13.6% on-layn tartibda amalga oshirildi. Aholi omonatlarining 1.0 trln.so'mi yoki milliy valyutada, 1.2 mln. AQSh dollari mobil ilova orqali qabul qilindi.

O'tgan yilga nisbatan muomaladagi plastik kartalar soni 20.3%ga ortib, 2,4 mln.donani, bankomat va infokiosklar 41.9%ga ortib, 674 tani tashkil qildi. Respublikaning turli xududlarida barcha turdagi xizmatlarni ko'rsatuvchi zamonaviy bank xizmatlari markazlari mavjud soni 90 taga, 1- ta filial, o'z-o'ziga bank xizmatlari ko'rsatish markazlari (24/7) 173 taga yetkazildi. Depozit bazasi 13,8 trln.so'mni tashkil. O'tgan yilga nisbatan 33.7%ga yoki 2.8 trln. so'mga ko'p daromad olinib jami 11,1 trln. so'm daromad ko'rildi. Sof foyda rejasiga 118%ga bajarilib 911,7 mlrd.so'm foyda ko'rildi. Aktivlar rentabelligi (ROA) 2022 yilda 1,3%ni, kapital rentabelligi (ROE) 11.1%ni, operatsion samaradorlik (CIR) ko'rsatgichi 31,5%ni tashkil qildi. Bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha ko'rilgan choralar natijasida "Fitch reytings" xamda "Standart end purs" xalqaro reyting agentliklari tomonidan bankka berilgan "BB-" reyting baholari saqlanib qolmoqda. Xususan, 2019 yilning 1 yanvar holatiga tijorat banklari kredit qo'yilmalarining 39,8 %i sanoat, 12,5 %i transport va kommunikatsiya sohasi, 6,4 %i savdo va umumiy xizmat ko'rsatish sohasi, 5,6 %i qishloq xo'jaligi sohasi, 3,5 %i qurilish sohasi hamda 14,6 %i jismoniy shaxslar

hissasiga to'g'ri keladi. 2020 yilning 1 yanvar holatiga xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga ajratilgan kredit qo'yilmalarining 35,7 %i sanoat, 11,1 %i transport va kommunikatsiya, 8,1 %i qishloq xo'jaligi, 8,6 %i savdo va umumiy ovqatlanish, 2,8 %i qurilish hamda 18,9 %i jismoniy shaxslar sohalar hissasi to'g'ri keladi. 2023 yilda esa jami kredit qo'yilmalarining 32,5 %i sanoat tarmog'iga to'g'ri kelmoqda. Bu xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi) ekspertlarining tavsiyasiga deyarli to'g'ri keladi, ya'ni bitta sohaga yoki tarmoqqa ajratilgan kreditlar jami kredit portfelining 25 %i miqdorida bo'lishi eng optimal variant deb hisoblashadi. Qolaversa, jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning ulushi o'tgan yilga nisbatan 4,8 % bandga oshgan va 25,9 %ni tashkil etgan. Tijorat banki aktivining tarkibi kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari, O'RMBdagi hisobvaraqlari, Markaziy bankdagi majburiy zahira hisobvarag'i, boshqa banklardagi vakillik hisobvaraqlari, boshqa banklardagi hisobvaraqlaridagi mablag'lari, oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari, sotib olingan debitorlik qarzlar (faktoring), qisqa muddatli kreditlar, uzoq muddatli kreditlar, lizing, kreditlar va lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zahirasi, investitsiyalar (zahirani hisobga olganda), sud jarayonidagi kreditlar, tugallanmagan qurilishlar, bankning imoratlari, obyektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi, to'lov kartochkalari bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uskunalari va operatsion ijaraga berilgan asosiy vositalar, transport vositalari, mebel, moslama va jihozlar, nomoddiy aktivlar, ombordagi asosiy vositalar, valyuta pozitsiyasi hisobvaraqlari, hukumat hisobvaraqlari, boshqa aktivlar (jumladan, pul o'tkazmalari hisobi) dan iborat. 01.01.2016 yil holatida "Qishloq qurilish bank" ATBning aktivlari 3 995 mlrd. so'mni tashkil qildi. O'tgan yilga nisbatan aktivlar 1 029 mlrd. so'mga yoki 1,35 barobarga o'sgan. Aktivlar tarkibida 435,6 mlrd. so'mni (jami aktivlarning 60%i) daromad keltiruvchi aktivlar tashkil etgan. O'tgan yilga nisbatan kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari 1.58 marta, O'RMBdagi hisobvaraqlari, Markaziy bankdagi majburiy zahira hisobvarag'i 1.11 marta, boshqa banklardagi vakillik hisobvaraqlari 1.42 marta, boshqa banklardagi hisobvaraqlaridagi mablag'lari 2.41 baravar, qisqa muddatli kreditlar 1.36 baravar, uzoq muddatli kreditlar va lizing 1.34 marta, bankning imoratlari 1.16, to'lov kartochkalari bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uskunalari va operatsion ijaraga berilgan asosiy vositalar 1.67 marta, transport vositalari 1.27 marta, mebel, moslama va jihozlar 1.34 marta, nomoddiy aktivlar 1.41 marta, ombordagi asosiy vositalar 1.31 marta, hukumat hisobvaraqlari 1.35 marta oshgan, boshqa aktivlar (jumladan pul o'tkazmalari hisobi) 1.66 baravar kamaygan.

Bankning daromad keltiruvchi aktivi tahlili.

№	Daromadlar	Foiz %
---	------------	--------

1	Foizli daromadlar	55,0
2	Hisob – kassa xizmati ko`rsatishdan olingan daromadlar	20,0
3	Xalqaro pul o'tkazmalaridan olingan daromadlar	22,0
4	Boshqa operatsion daromadlar	3,0

Tijorat banklari daromad keltiruvchi aktivi kredit portfelini shakllantirish va boshqarish samaradorligini oshirish masalalari bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1) Supiyevna, B. M. (2025). G'AZNACHILIK-DAVLAT MOLİYASINING ENG MUHIM BO'LAGI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(5), 117-123.
- 2) Supiyevna, B. M. (2025). BUDGETING IN THE PUBLIC SECTOR. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(6), 90-95.
- 3) Supiyevna, B. M. (2025). PRINCIPLES OF TAXATION. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(6), 111-116.
- 4) Supiyevna, B. M. (2025). THE US TAXES ON INCOME. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(7), 221-226.
- 5) Supiyevna, B. M. (2025). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA «G 'AZNACHILIKNI JORIY ETISH» KONSEPSIYASINING YARATILISHI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(6), 49-54.
- 6) Supiyevna, B. M. (2025). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT MOLİYASI TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(4), 44-50.
- 7) Supiyevna, B. M. (2025). O'zbekistonda Davlat Moliyasi Faoliyatining Huquqiy Asoslari. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 94-101.
- 8) Umedova, N., & Bazarova, M. S. (2025). OZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. *Modern Science and Research*, 4(2), 362-370.
- 9) Supiyevna, B. M. (2025). O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI BARQAROR O 'SISHINI TA'MINLOVCHI OMILLAR. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(5), 142-151.
- 10) Supiyevna, B. M. (2025). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(7), 315-322.
- 11) Supiyevna, B. M. (2025). INSON SALOHIYATINI MEHNAT POTENSIALI RIVOJLANTIRISHNING MOHIYATI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(6), 197-204.

12)Bazarova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF USING PR-ADVERTISING SERVICES IN THE PROCESS OF PRODUCT DELIVERY ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION. *Modern Science and Research*, 2(12), 506-512.

13)Бобоев, А. Ч., & Базарова, М. С. (2019). Хорижий инвестицияларнинг жозибадорлигини ошириш. *Интернаука*, (22-3), 88-90.

14)Bazarova, M. S., & Khudaiberdiyeva, O. Q. (2022). IMPROVEMENT OF THE MECHANISM OF INNOVATIVE MANAGEMENT OF FOOD INDUSTRY ENTERPRISES. In *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации* (pp. 464-467).

15)Supievnova, B. M., & Firuza, S. (2023). Strategic ways of implementing personnel policy in commercial banks. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(7), 22-25.

16)Supiyevna, B. M. (2024). DISTINCTIVE FEATURES OF PERSONAL MANAGEMENT IN THE ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS. *Gospodarka i Innowacje*, 47, 134-139.

17)Supievnova, B. M. (2023). USING EFFECTIVE WAYS OF CONDUCTING MARKETING RESEARCH IN INTERNATIONAL COMPANIES. *Gospodarka i Innowacje*, 41, 79-83.

18)Supievnova, B. M. (2023). MARKETING MANAGEMENT STRATEGY'S IMPORTANCE AND MODERN CONCEPT. *Gospodarka i Innowacje*, 42, 381-386.

19)Supiyevna, B. M. (2022). Innovatsion iqtisodiyotda inson kapitalini boshqarish tizimini takomillashtirish.

20)Bazarova, M. S., & Shahboz, K. (2022). Ways to increase the efficiency of available tourist facilities in Uzbekistan. *Scientific approach to the modern education system*, 1(10), 16-18.

21)Qudratova, G. M. (2025). THE EVALUATION OF UNIVERSITY COMPETITIVENESS: A REVIEW OF METHODOLOGIES. *SHOKH LIBRARY*.

22)Husenov, A., & Qudratova, G. (2025). RAQOBAT VA RAQOBAT STRATEGIYALARI: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR. *Modern Science and Research*, 4(2), 292-299.

23)Sodiqova, N. (2025). METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' TECHNICAL THINKING IN ECONOMICS CLASSES. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 885-891.

24)Islomova, M., & Sodiqova, N. (2025). ILM-FAN VA TA'LIMDAGI INNOVATION RIVOJLANISHNING DOLZARB MUAMMOLARI. *Modern Science and Research*, 4(2), 300-307.

25)Bahodirovich, X. B., & To'rayevna, S. N. (2025). LOMBARD TASHKILOTLARI VA ULARNING XIZMATLARI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(3), 290-298.

26)Bahodirovich, X. B. (2025). XO’JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA HISOB YURITISH SIYOSATI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(6), 210-215.

27)Ёкубов, А. Б., & Алимова, Ш. А. (2024). МАКРОЭКОНОМИКА: ЭВОЛЮЦИЯ ТЕОРИИ И СОВРЕМЕННОЙ ПРАКТИКИ.

28)Abidovna, A. S. (2025). INVESTMENT PROJECTS: ADVANCED MANAGEMENT AND EVALUATION. *SHOKH LIBRARY*.

29)Hakimovich, T. M. (2025). EKSPORT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA DIVERSIFIKATSIYANING AHAMIYATI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(4), 112-121.

30)Hakimovich, T. M. (2025). O ‘ZBEKISTONDA EKSPORTNI RAG ‘BATLANTIRISH UCHUN FOYDALANILADIGAN MOLIVAVIY VOSITALAR TAHLILI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(5), 141-150.

31)Ibodulloyevich, I. E. (2024). O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI VA ISHBILARMONLIK MUHITINI YAXSHILASH ISTIQBOLLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 258-266.

32)EI, I. (2025). MINTAQALAR VA MA’MURIY HUDUDLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI INVESTITSIYA BILAN TA’MINLOVCHI IQTISODIY TIZIM SIFATIDA. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(6), 58-69.

33)Azimov, B. F., & Yodgorova, Z. Y. (2025). METHODS OF STUDYING THE STATE OF COMPETITION IN THE EDUCATIONAL SERVICES MARKET. *SHOKH LIBRARY*.

34)Azimov, B. F. (2025). INNOVATSIYALARNI QO ‘LLAB-QUVVATLASH XIZMATLARI: ISPANIYA, POLSHA VA BOLGARIYA TAJRIBALARI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(4), 12-23.

35)Raxmonqulova, N. O. (2025). DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY ON A GLOBAL SCALE AND THE EXPERIENCE OF COUNTRIES. *SHOKH LIBRARY*.

36)Қизи Рахмонқулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ҲУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. “*Экономика и туризм*” международный научно-инновационный журнал, 6, 14.

37)Shadiyev, A. X. (2025). DEVELOPMENT OF THE CURRICULUM FOR ECONOMIC DISCIPLINES IN PRIVATE UNIVERSITIES. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, 13(1), 389-396.

38)Shadiyev, A. X. (2025). METHODS OF TEACHING THE “ECONOMIC THEORY”. *SHOKH LIBRARY*.

39)Zaripova, G., & Naimova, N. (2025). INFLYATSIYA VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI. *Modern Science and Research*, 4(2), 371-378.

40) Akbarovna, N. N. (2025). PROBLEMS OF INCREASING INVESTMENT ACTIVITY IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION. *SHOKH LIBRARY*.

41) Jumayeva, Z. (2023). BASICS OF NATIONAL ECONOMIC DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 2(12), 296-300.

42) Bostonovna, D. Z. (2023). CONCEPTUAL BASIS OF IMPROVEMENT OF BANK AUDIT IN COMMERCIAL BANKS. *IMRAS*, 6(6), 118-124.

43) Tagayeva, R., & Bobojonova, M. J. (2025). BYUDJET, UNING SHAKLLANISHI VA TAQSIMLANISHI. *Modern Science and Research*, 4(2), 387-393.

44) Bobojonova, M. J., & Toshev, M. H. (2025). JAHON BOZORIDA YASHIL IQTISODIYOTNI MOLİYALASHTIRISH TENDENSIYASI: FAKTLAR VA KO‘RSATKICHLAR ASOSIDA TAHLIL. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(4), 120-128.

45) Жумаева, З. К. (2024). РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ ИНДУСТРИЙ КАК ФАКТОР РОСТА НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: ОБЗОР ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.

46) Жумаева, З. К. (2024). Инвестиционная Активность Как Основной Элемент Организационно-Экономического Механизма Маркетинга Территории. *Miasto Przyszłości*, 55, 1411-1417.

47) Ibragimov, A. (2025). PROSPECTIVE WAYS OF ATTRACTING FOREIGN INVESTMENT TO THE NATIONAL ECONOMY. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 137-143.

48) Qahhorova, J., & Ibragimov, A. (2025). XORIY INVESTITSİYALAR ANAMIYATI, OMILLARI VA ISTIQBOLLARI. *Modern Science and Research*, 4(2), 283-291.

49) Алимова, Ш. А., & Джураева, М. С. (2025). ИНВЕСТИЦИОННЫЕ ПРОЕКТЫ: УПРАВЛЕНИЕ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(4), 81-87.

50) Игамова, Ш. З. (2024). МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ФОРМИРОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИННОВАЦИОННОГО развития ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ. *Gospodarka i Innowacje*, 43, 335-340.

51) Baxtiyorova, J., & Djurayeva, M. S. (2025). BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA RAQOBATNING ROLI. *Modern Science and Research*, 4(2), 477-485.